


## Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz)


2020 yilning 1 yanvar holatiga viloyatda 14011 ta faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar mavjud bo'lub, ularning 2319 tasi 2019 yilning yanvar-dekabr oylari davomida yangi tashkil qilingan.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida, asosan savdo (25,7%), sanoat (19,7%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (17,7%) hamda qurilish (12,8%) tarmoqlarida asosiy ulushni tashkil etishi ma'lum bo'di. Shuningdek, tashish va saqlash (4,2%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (7,9%), axborot va aloqa (1,2%), sog'lijni saqlash va xizmatlar ko'rsatish (1,2%) hamda boshqa faoliyat turlarida (9,6%) nisbatan kam ulushni tashkil etdi.

### 2019 - yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



## 2019 yilning yanvar-dekabr oyilarida hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda.




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, Jizzax shahrida (1031 ta), Sharof Rashidov (588 ta), Zomin (304 ta), G'allaorol (280 ta) va Forish (250 ta) tumanlarida nisbatan ko'proq tashkil etilgan.

Shu bilan birga, Zafarobod (86 ta) va Yangiobod (71 ta) tumanlarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni nisbatan kam tashkil etilgan bo'lsada, bu hududlarda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar  
bo'yicha ulushi, foizda**




2019 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p ulushi Jizzax shahri (30%), Sharof Rashidov (17,1%), Zomin (8,9%), G'allaorol (8,2%), Forish (7,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Zafarobod (2,5%) hamda Yangiobod (2,1%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.




# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## 2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

Kichik tadbirdorlik (biznes)ning eng  
kichik ulushi



Kichik tadbirdorlik (biznes)ning eng katta ulushi




2019 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p ulushi Jizzax shahrida (30%), Sharof Rashidov (17,1%), Zomin (8,9%), G'allaorol (8,2%), Forish (7,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Zafarobod (2,5%) hamda Yangiobod (2,1%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




2019 yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p savdo (1100 ta), sanoat (751 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (554 ta), qurilish (438 ta) tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, boshqa tarmoqlarga nisbatan eng past ko'rsatgich axborot va aloqa (46 ta) hamda sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatgichi (34 ta) hissasiga to'g'ri kelgan.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**2019 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va  
mikrofirmalar, birlikda**






## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)**



## Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Joriy yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi sanoatda 66,5%, qurilishda 98,0%, investitsiyada 69,2%, savdoda 86,4%, eksportda 67,1%, importda 96,9%, xizmatlar sohasida 63,2%ni tashkil etgan bo`lsa, tarmoqlar kesimida eng yuqori ko`rsatgich qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligi hissasiga to`g'ri kelib, ya`ni 99,9%ni tashkil qilgan.






## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi (yanvar-dekabr holatiga, %da)



### Tarmoqlarda kichik tadbirkorlikninig ulushi (umumiy hajmiga nisbatan foizda)



## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlikning ulushi, foizda



● Sanoat   ● Qurilish   ● Xizmatlar   ● Investitsiya



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3185,3 mlrd. so'mni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarishining 66,5 foizi kichik biznes sub`yektlatari hissasiga to`g`ri keldi.




Joriy yilda o`zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 5483,9 mlrd. so'mni (umumiyligi investitsiyalar hajmining 69,2 foizi) tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 337,4 foizni tashkil qildi.

Qurilish tarmog`ida bajarilgan qurilish ishlari 2076,6 mlrd. so'mga (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 98,0 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 136,6 foizni tashkil qildi.



Xizmatlar sohasida 2641,4 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyatda jami xizmatlar hajmining 63,2 foizi), 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 86,4 foizi yoki 5062,6 mlrd. so'm (o'sish sur'ati 112,0 foizi) ga bajarildi.




2019 yil yanvar-dekabr oylarida eksport sohasida 80,7 mln. AQSh dollar (umumiyligi eksport hajmining 67,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilingan bolsa, import sohasida 376,7 mln. AQSh dollar (umumiyligi import hajmining 96,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.



Transport yo`nalishida avtomobil transporti yuk aylanmasi 98,4 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 98,4 foizi), yo'lovchi aylanmasi 97,7 foizga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 97,7 foizi) o'sish sur'ati ta'minlandi.

## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, foizda




2019 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi G'allaorol, Sharof Rashidov, Zomin, Mirzacho'l, Forish va Yangiobod tumanlarida 100,0%ni tashkil etgan bo`lsa, eng past ko`rsatgich Do'stlik (30,7%) va Paxtakor (19,3 %) tumanlari hissasiga to`gri kelgan.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2019 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm**




Hududlar bo'yicha eng ko'p sa'noat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (1598,4 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (283,7 mlrd.so'm), Zomin (290,9 mlrd.so'm) hamda Forish (187,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan. Sano`at mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini eng past ko`rsatgichi Yangiobod (59,9 mlrd.so'm) va Zafarobod (47,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to`g'ri kelgan.




## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2019 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (1237,9 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (927,6 mlrd.so'm), Zomin (829,7 mlrd.so'm) va G'allaorol (405,2 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi, eng past ko'rsatgich Yangiobod (53,3 mlrd.so'm) tumani hissasiga to'g'ri kelgan.

## 2019 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (897,0 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (397,1 mlrd.so'm) va Paxtakor (146,4 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi. Eng kam bajarilgan qurilish ishlari hajmi Arnasoy (27,0 mlrd.so'm) va Zafarobod (33,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.




## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### 2019 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi Jizzax shahri (1476,0 mlrd.so'm), Forish (756,0), Sharof Rashidov (354,2 mlrd.so'm), Mirzacho'l (302,7 mlrd.so'm) va Gallaorol (352,2 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi. Eng kam asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi Yangiobod (122,1 mlrd.so'm) va Baxmal (126,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

## 2019 yil yanvar- dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Jizzax shahri (814,7 mlrd.so'm), Sharof Rashidov (347,9 mlrd.so'm), Do'stlik (229,9 mlrd.so'm) G'allaorol (247,4 mlrd.so'm), va Zomin (194,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng past ko'rsatgich Zafarobod (66,2 mlrd.so'm) va Yangiobod (48,4 mlrd.so'm) tumanlariga to'gri kelgan.

## 2019 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Jizzax shahri 20,4% (10 ta), Sharof Rashidov 28,6% (14 ta), G'allaorol 4,1% (2 ta), Zomin 6,1% (3 ta), Forish 14,3% (7 ta), Baxmal 2,0 % (1 ta), Do'stlik 8,2% (4 ta), Zarbdor 2,0% (1 ta), Mirzacho'l 2,0% (1 ta), Zafarobod 4,1% (2 ta), Paxtakor 4,1% (1 ta) va Yangiobod 4,1 % (2 ta) tumanlariga to'g'ri keldi.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2019 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy vaziyatdagi  
o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rileyotgan chora tadbirdilar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligida iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: M.Usmanqulov  
Tel.: (0371) 230-83-43, 230-83-61**